

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.B.Yuldasheva	
Tabiiy fanlar yo'nalishi talabalarining ingliz tilini o'rganish ehtiyojlariga bo'lgan munosabati tadqiqoti	580
Sh.Dadabayeva	
Qo'shma gaplar turkumida qiyoslash mazmunidagi bog'lovchisiz qo'shma gaplar	583
G.R.Mamadaliyeva	
Ingliz va o'zbek tillarida "foot/oyoq" kontseptining nominativ maydoni	587
Z.M.Abdullaev	
Asl turkiy antroponimlar va ularning tarixiy-etimologik shakllanishi	595
X.Abdurahmonov	
O'zbek tilshunosligi tarixida mavhum otlarning o'rganilishi va ularning ahamiyati	599
M.R.Otaboyeva	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarning o'xshash va farqli jihatlari	603
Z.Q.Jurayeva	
Til o'rganish aspektlari	606
D.R.Axmadaliyeva	
Ingliz tili darslarida gamifikatsiyani qo'llash	610
D.O'.Yusupova	
Chet tili o'qitishning modellari haqida	615

TILSHUNOSLIK

S.G'.Shomurodova	
Nikoh urf-odatlar bilan bog'liq kiyimlarning to'y qo'shiqlaridagi poetik talqini	619
S.O.Samiyeva	
Tojik tilidagi frazeologik evfemizmlar	624
M.M.Abdulxayeva	
Tilshunoslikda sinonimiyaning o'rganilishi va uning turlariga oid olimlarning qarashlari	628
D.L.Homitov	
Klassik fors va hozirgi tojik tillaridagi qisqa unilarning fonologik qiyosiy tahlili	632
Z.V.Alimova	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida	639
Z.S.Tashtemirova, M.S.Kushmatova	
Rus va ingliz tillarida odamning ko'rinishini tavsiflovchi frazeologizmlar	644
M.N.Tilloxojayeva	
Kognitiv kompetentsiya va uning tojik tilini o'qitishdagi o'rni	649
D.Z.Mukumova	
Shayx Kamol Xo'jandiy g'azallaridan Ismat Buxoroiyning ta'sirlanishi	654
S.M.Saidova	
O'zbekiston oliy ta'lim oliygohlari milliy guruhlarida rus o'g'zaki va yozma nutq o'qitilishi	658
N.X.Toshnazarova	
Xitoy tilida maqol va matallar	662
M.M.Gaziyeva	
Publististik uslub matnlarida tagma'no hodisasi xususida	665

ALISHER NAVOIYNING “SADDI ISKANDARIY” ASARIDAGI AYRIM FORSCHA QO‘SHMA SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI HAQIDA

О ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ НЕКОТОРЫХ ПЕРСИДСКИХ СЛОЖНЫХ СЛОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «САДДИ ИСКАНДАРИ» АЛИШЕРА НАВОИ

ABOUT LEXICO-SEMANTIC CHARACTERISTICS OF SOME PERSIAN COMPOUND WORDS IN “SADDI ISKANDARI” BY ALISHER NAVOI

Alimova Zarifa Vaxobovna¹¹Alimova Zarifa Vaxobovna

— Farg‘ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası dotsenti v.b., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarida shoir tomonidan qo‘llanilgan forsiy qo‘shma so‘zlar xususida so‘z boradi. Asardagi forscha qo‘shma so‘zlarning etimologik xususiyatlari, ularning leksik ma‘nolari, forsch-tojikcha lug‘atlardagi izohlarga asoslanganligi, boshqa manbalarda keltirilgan izohlarga taqqoslanganligi, forscha so‘zlarning Navoiy asarlari izohli lug‘atidagi leksik ma‘nolari yuzasidan ilmiy qarashlar keltirilgan. Maqolada keltirilgan forscha qo‘shma so‘zlarning leksik va semantik jihatdan ma‘nolari iizohlangan, ular kasbni ifodalashi va harakat yoki holatni ifodalashiga ko‘ra guruhlab ko‘rsatilgan.

Аннотация

В данной статье идет речь о персидских сложных словах, использованных поэтом в произведении Алишера Навои «Садди Искандари». Приведены этимологические особенности персидских сложных слов произведения, их лексические значения, то, что они основаны на комментариях в персидско-таджикских словарях, сравнение с комментариями, приведенными в других источниках, научные взгляды на лексические значения персидских слов в аннотированном словаре произведений Навои. Объяснены лексико-семантические значения персидских сложных слов, представленных в статье, и они сгруппированы по выражению профессии и действия или состояния.

Abstract

This article deals with the Persian compound words used by the poet in the work of Alisher Navoi “Saddi Iskandari”. The etymological features of the Persian compound words of the work, their lexical meanings, the fact that they are based on comments in Persian-Tajik dictionaries, comparison with comments given in other sources, scientific views on the lexical meanings of Persian words in the annotated dictionary of Navoi’s works are given. The lexico-semantic meanings of the Persian compound words presented in the article are explained, and they are grouped according to the expression of the profession and action or state.

Kalit so‘zlar: Qo‘shma so‘zlar, forscha-tojikcha so‘zlar, lug‘aviy birlik, so‘z semantikasi, tovush o‘zgarishi, metateza, kontakt metateza, distant metateza, ot, sifat, fe‘l, fe‘lning hozirgi zamon asosi.

Ключевые слова: Сложные слова, персидско-таджикские слова, лексическая единица, семантика слова, изменение звука, метатеза, контактная метатеза, отдаленная метатеза, существительное, прилагательное, глагол, настоящее время.

Key words: Compound words, Persian-Tajik words, lexical unit, word semantics, sound change, metathesis, contact metathesis, distant metathesis, noun, adjective, verb, present tense of verb.

KIRISH

Bugungi kunda buyuk bobokalonimiz, o‘zbek adabiy tilimiz, mumtoz adabiyotimiz asoschisi Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish, uning betakror asarlarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ilmiy tadqiq etish har qachongidan ham yuqori bosqichga ko‘tarilmoqda. Hozirgi paytda dunyo va o‘zbek tilshunosligi hamda adabiyotshunosligida Alisher Navoiy asarlarini tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etish, buyuk adib asarlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish bo‘yicha juda ko‘p izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Navoiy asarlaridagi so‘zlarning leksik-semantik guruhlari, forsiy va arabiy o‘zlashmalarni o‘rganish ilmiy tadqiqotchilarning diqqat-e‘tiborini o‘ziga tortmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganlaridek, “ulug‘ shoir o‘zining she‘riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g‘oyalarni, ona tilimizning, beqiyos so‘z boyligi, cheksiz ifoda imkoniyatlarini butun jozibasi va latofati bilan namoyon etib, yer yuzidagi millionlab kitobxonlar qalbidan mustahkam o‘rin egalladi” [1, 14].

ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Navoiy asarlari yuzasidan qator ilmiy ishlar olib borilgan, hozirda ham bu jarayon davom etmoqda. Navoiy ijodini o'rganishda S.G'aniyeva, B.Abdullayev, Yo.Is'hoqov, I.Haqqul, A.Hayitmetov, A.Qayumov, H.Jo'rayev, A.Hojimuhamedov kabi adabiyotshunos olimlarning xizmatlari beqiyos. O'zbek tilshunoslaridan B.Bafoyev, A.Nishonov, E.Umarov, S.Ashirboyev [7, 24], A.Rustamov, M.Qodirov [11, 2-24], F.Hayitmetov [12, 37-45], N.Umarova [10,15-78], M.Akbarova [6, 23], D.Abdualiyeva, N.Abdualiyeva [5, 14-79] kabi olimlarning ilmiy izlanishlari tahsinga loyiq.

H.Dadaboyev XI-XV asrlarda bitilgan qo'lyozma asarlar haqida to'xtalar ekan, bunday qo'lyozmalar tilidagi 700 ga yaqin ijtimoiy-siyosiy atanalarning 640dan ortig'i Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilganini alohida qayd etadi[8,67-70].

U.Sanaqulov o'z nomzodlik dissertatsiyasini Navoiyning "Muhokamt ul-lug'atayn" asari tili va uslubini o'rganishga bag'ishladi[9,28].

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi forsiy qo'shma so'zlar bevosita turkiy, arabiy so'zlarga qiyoslangan holda tahlil qilindi. Bunda forsiy qo'shma so'zlarning etimologik xususiyatlari, ularning leksik ma'nolari, forsch-tojikcha lug'atlardagi izohlariga qiyoslash metodlari asosida ish ko'rildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur maqolada "Saddi Iskandariy" asarida shoir tomonidan qo'llanilgan forsiy qo'shma so'zlar xususida so'z boradi.

Bo'ryobof – بويروبوف ot so'z turkumiga oid b'lib, *bo'rya* (bo'yra) so'ziga *boftan* – "to'qimoq" fe'lining hozirgi zamon asosi *bof* qismining qo'shilishi orqali kasbni bildiruvchi so'z hosil qilingan: *bo'ryobof* – *bo'yra to'quvchi*. **Bo'yra** leksemasiga etimologik lug'atda quyidagicha ta'rif beriladi: "Bu ot TjRSda **buryo** shaklida keltirilib, "qamishdan to'qilgan to'shama" ma'nosida kelishi aytilgan (87). PRSda bu so'z **buryo** "to'shama", "qamish" ma'nolarini anglatishi ta'kidlangan (74). O'zbek tiliga o'zlashtirishda u tovushi o' tovushiga, o tovushi a tovushiga almshgan, ry tovushlari o'rin almshgan: *buryo* – *bo'ryo* – *bo'yra*". Bu ot "*Yurgan daryo* – *o'tirgan bo'yra*" hikmati tarkibida qofiya talabi bilan *bo'yro* shaklida ham aytiladi"[7,54]. So'zda tovushlar o'rin almashinishi *metateza* hodisasi deyiladi. Metateza ikki turli bo'ladi: *kontakt metateza* va *distant metateza*. *Kontakt metateza* – yonma-yon joylashgan tovushlarning o'rin almashinuvi: *tuproq >turpoq, to'g'ramoq >to'rg'amoq* kabi. *Distant metateza* – bir-biridan uzoqroqda bo'lgan tovushlarning o'rin almashinuvi: *aylanayin>aynalayin* kabi[6,76-77]. *Bo'yra* leksemasi kontakt metatezaga misol bo'ladi: *Arab fozillaridan Asmaiy yozadilar: "Bir kishini ziyorat qilib kirdim. U zot kichik bo'yra ustida o'tirar edilar... Men bu iltifot uchun rahmat aytib dedimki: "Bo'yrangiz tor, men ham o'tirsam siz rohatsizlanasiz"* (T.Malik, Odamiylik mulki, 171-bet).

"Saddi Iskandariy" asarida **bo'ryobof** leksemasi ishtirokida quyidagi misolni keltirish mumkin:

Birov ko'ngli ollindakim sofdur,

Agar zarkash, ar bo'ryobofdur.

Agar bo'lsa o'z fannida bebadal,

G'animatdur ul borchag'a filmasal (Saddi Iskandariy, 36-bet).

Ma'nosi: "*Agar birov sof ko'ngilli bo'lsa, xoh u zargar va xoh bo'yra to'quvchi bo'lishidan qat'iy nazar, o'z hunarida tengsiz bo'lgani uchun barchaga baravar seviklidir*" (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 39-bet).

Besarupo(liq) – بيسروپا sifat turkumiga oid leksema bo'lib, "be-" sifat yasovchi old qo'shiimcha, "sar"- "bosh", "u" – "va" bog'lovchisining nazmda ifodalanishi, "po"- "oyoq" ma'nosini bildiradi. ANATILda "*besarupo(y)*" leksemasiga "*boshyalang*", "*oyoqyalang*", "*telba*"; "*bechora*" deya ta'rif beriladi (ANATIL, 1-jild, 274-bet).

Agar muncha yuz bo'lsa rasvolig'im,

Siyahro'lug'u besaru polig'im

Vale sendin uzmaymen aslo umid

Ki, ermon karam bahridin noumid (Saddi Iskandariy, 10-bet).

Ma'nosi: "*Ana shuncha yuzi qoraliklar, rasvoliklar, beboshliklar qilgan bo'lsam-da, sendan also umid uzmayman*" (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 13-bet). Nasriy bayondan ko'rinadiki, "**besarupo(liq)**" leksemasi "beboshlik" deya izohlangan.

TILSHUNOSLIK

Bodapolo – باده پالا ot turkumiga tegishli leksema bo'lib, “boda” — “may”, “polo” – “poludan”- پالودن “siqmoq, siqib olmoq”, “tozalamoq”, “filtrlamoq” fe'lining hozirgi zamon asosi hisoblanadi (PRS, 1-jild, 268). Demak, *bodapolo* so'zi “*mayni siqib olish buyumi*”, “*mayni siqib olishda kir narsalardan tozalaydigan buyum*” ma'nosini ifodalaydi. Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida ushbu leksemaga “*mayni suzishda ishlatiladigan mato, doka*” deya ta'rif berilgan (ANATIL, 1-jild, 205-bet). Ma'lim bo'ladiki, *bodapolo* leksemasi qo'shma so'z bo'lgani uchun forscha-tojikcha lug'atlarda uchramadi.

Musallo garovda mayolo bo'lub,

Rido go'shasi badapolo bo'lub (Saddi Iskandariy, 10-bet).

Ma'nosi: “*Joynamozni may uchun garovga qo'ydim, yelkamga qo'ygan yeopinchig'im chetlaridan maysuzgich sifatida foydalandim*” (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 13-bet).

Chashmazm – چشمزخم sifat turkumiga oid leksema bo'lib, “*chasm*” – “*ko'z*”, “*zaxm*”- “*yara, jarohat*” ma'nolarini ifodalaydi.

Qalamg'a yetib maqdamidin kushod,

Yozib chashmazmi uchun «in yakod» (Saddi Iskandariy, 19-bet).

Ma'nosi: *Uning tashrif buyurishidan qalamga kushoyish yetib, ko'z tegmasligi uchun “in yakod” – “yaqin bo'lsak” oyatini yoza boshladi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 22-bet). Keltirilgan baytdan ko'rinadiki, *chasmzaxm* qo'shma so'zi “*ko'z tegmaslik*” ma'nosini ifodalagan.

Navoiy asarlari izohli lug'atida *chashmazm* leksemasi izohi berilmagan. Lekin *chasm* (ko'z), *zaxm* (yara, jarohat) so'zlari alohida izohlangan. FTZTda ham ushbu so'z izohi uchramadi. Balki *chashmazm* leksemasi qo'shma so'z bo'lgani uchun izoh berilmagan bo'lishi mumkin. Y.Rubinchikning forscha-ruscha lug'atida esa *chasmzaxm* (*chesmazm*) leksemasi keltirilgan va quyidagicha ta'rif berilgan: “*chesmazm*” – *yomon ko'z* (сглаз, действие дурного глаза).

Dargahnishin — درگه‌نیشین ot so'z turkumiga oid leksema bo'lib, “*dargah*”(dargoh) – “*ostona*”, “*saroy*”, “*uyning kirish qismi*”, “*nishin*” – “*neshastan*” – “o'tirmoq” fe'lining hozirgi zamon asosidan yasalgan qo'shma so'zdir. ANATILda *dargahnishin* leksemasi “*saroy ahli*” deya izohlanadi (ANATIL, 1-jild, 454-bet).

Atoridki, mavloyi dargahnishin,

Qachon xoma yo'nsa bo'lub rezachin (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Ma'nosi: *Atorud yulduzi uning xizmatkoriga aylangani uchun qalamdan to'kilgan maydachuyda chiqindilarni terib turadi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet). Keltirilgan baytdan ayon bo'ladiki, “*mavloyi dargahnishin*” izofiy birikma bo'lib, “*saroy ahlining xizmatkori*” deya tarjima qilinadi. Bizningcha, Atorud yulduzi asarda keltirilgan baytda Allohning xizmatkori sifatida e'tirof etilgan. Demak, *dargahnishin* leksemasining “*saroy ahli*” tarjimasidan tashqari uning birinchi ma'nosi Alloh sifati ham tushuniladi.

ANATILda “Saddi Iskandariy” dostonida *dargahnishin* leksemasi ishtirok etgan quyidagi bayt ham keltirilgan:

So'zin fahm etib xayli dargahnishin,

Shoh olida arz ettilar kelishin (ANATIL, 1-jild, 454-bet).

FTZTda “*dargahnishin*” leksemasi “*dargahnishin*” shaklida uchraydi va uning “*ostona*” (*ostonashin*) ma'nosidan tashqari “*kamtar*”, “*kamtarin*” (“*haqir*”, “*xoksor*”) kabi ma'nolari berilgan (FTZT, 1-jild, 412-bet). O'zbek tilining etimologik lug'atida “*dargahnishin*” leksemasi uchramadi.

Dastonsaro – دستانسرا “*daston*” — “*doston*” hamda “*saro*” – “*so'rudan*”- “*kuylamoq*” fe'lining hozirgi zamon asosidan yasalgan leksema. ANATILda ushbu leksemaning “*doston aytuvchi*”, “*kuylovchi*”, “*xushxon*” ma'nolari keltirilgan:

Qachon xoma dastonsaro aylabon,

Savodi jahonni qaro aylabon (Saddi Iskandariy, 32-bet).

Ma'nosi: “*Uning qalami doston tuzishga mayl ko'rguzgan zahoti yozuvlari bilan jumla jahonni to'ldira oladi*” (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 35-bet).

ANATILda *dastonsro* ishtirokidagi quyidagi to'rtlik ham keltirilgan:

Bu gulshan bulbul-u bo'ston saroyi,

Dema bo'stonsaro, dastonsaroyi (Farhod va Shirin)

Bulbuli ishq o'ldi chu dastonsaro

Kirdi tamoshog' bu bo'ston aro (Hayrat-ul abrora).

Forscha-ruscha lug'atda ham (PRS, 1-jild, 602-bet), FTZTda ham (FTZT, 1-jild, 467-bet) "dastonsaro" leksemasining "dostonsaro" shakli uchraydi va yuqorida keltirilgan ma'nilarni ifodalaydi.

Gardunnishin – گردون نشین ot turkumiga oid leksema bo'lib, "gardun"- falak, osmon, "nishin" – "neshastan"-o'tirmoq fe'lining hozirgi zamon asosidir. Demak, *gardunnishin* "falakda o'tiruvchi", "falakda yashovchi" ma'nosini ifodalaydi.

Qaro yuz bila charxi **gardunnishin**,

Nechukkim, xaros uyi ichra chibin (Saddi Iskandariy, 3-bet).

Ma'nosi: *Ular go'yo qaro yuz bilan ko'kda yashovchi, yoxud qoramol (savr – sigir – мелеу yulduzlar turkumi) yordamida aylanadigan tegirmon tepasida uchib yuruvchi chibinlardir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 19-bet).

ANATILda *gardun* leksemasi asosida yasalgan *gardunasos* (baland, yuqori, oliy), *gardunvash* (falakvash, osmondek yuksak), *gardunvor* (ko'kday, osmon kabi), *gardunjanob* (ulug' darajali, martabali), *gardunmaob* (osmonda bo'ladigan, osmonga tegishli), *gardunsarir* (baland, ulkan taxtli, qudratli shoh), *gardunxirom* (ko'kda kezuvchi) kabi o'nlab leksemalar izohi keltirilgan, lekin *gardunnishin* so'zi uchramadi (ANATIL, 1-jild, 396-397-betlar).

Gavharfishon- گوهرفشان ot so'z turkumiga tegishli bo'lib, *gavhar* (gavhar, marvarid, dur) va *feshon* (sochish) so'zlaridan tashkil topgan.

ANATILda mazkur leksemaga "bahrali", "barakali", "qimmatbaho yomg'ir", "yog'in-to'kin"; "bezak beruvchi", "dur sochuvchi"; "xattot", "naf yetkazuvchi", "bahramand qiluvchi" kabi ma'nolari keltirilgan (ANATIL, 1-jild, 389-bet). Quyida keltirilgan baytdagi "gavharfishon" leksemasining yuqoridagi "bezak beruvchi" ma'nosi mos keladi:

Ne kog'azg'akim, kilki gavharfishon,

Qilib mehri zarkash anga zarfishon (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Ma'nosi: *Qalami gavhar sochuvchi bu shoir o'z so'zlarini qog'ozga yozgan emas, yo'q, zar sochuvchi quyosh unga osmondan zarvara q sochib turgan* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet).

FTZTda *gavharfishon//gavharafshon* so'zlarining "gavhar sochuvchi", "gavhar yog'diruvchi" ma'nolari (FTZT, 1-jild, 291-292) berilgan.

PRSDa "go'uharfeshon" so'zi "go'uharbor" leksemasiga sinonim ekanligi, ular metafora bo'lib, "marvarid sochiuvchi" (осыпающий жемчугом, рассыпающий жемчуг, рассыпающий жемчуг); "chiroyli nutq so'zlovchi" (красноречивый) kabi ma'nolari keltirilgan (PRS, 2-jild, 410-bet). Mazkur leksemaning "feshon" qismi haqida so'z borganda u *feshondan//afshondan* (sochmoq, sepmoq) fe'lining hozirgi zamn asosi ekanligini eslatib o'tish joiz.

Gardunxirom – گردونخرام ot turkumli leksema bo'ib, "gardun"-osmon, falak, "xirom"- "xiromidan" خرامیدن (nafislik, ulug'vorlik bilan yurish) fe'lining hozirgi zamon asosidir. ANATILda "gardunxirom" leksemasi "ko'kda kezuvchi" ma'nosini anglatishi ta'kidlangan (ANATIL, 1-jild, 397-bet). FTZT va PRSDa *gardunxirom* leksemasi uchramadi. FTZTda "gardun" (osmon, falak) va "xirom" (noz va viqor bilan yurish) so'zlari alohida keltirilgan. PRSDa "gardun" so'zi "osmon", "falak" ma'nosini ifodalashi haqida ma'lumot yo'q, "xirom" so'zining tarjimasi FTZTda keltirilgan ma'noga mos holda izohlangan.

Yeshitgach bu so'z soyiri charxgom,

Ravon qo'pti bo'lmoqqa gardunxirom (Saddi Iskandariy, 16-bet).

Ma'nosi: *Bu so'zni eshitgach, ildamqadam sayyoh ko'kni kezish maqsadida, tezlik bilan o'rnidan turdi* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 19-bet).

Ganjposh – گنجپاش "ganj" – "xazina", "posh"- "poshidan" (sochmoq) fe'lining hozirgi zamon asosidan hosil qilingan ot turkumiga tegishli leksema bo'lib, "xazina sochuvchi" deya tarjima qilinadi. *Ganj*, ya'ni *xazina* leksemasi orqali oltin, tillalar xazinasi tushuniladi. Shu ma'noda ANATILda *ganjposh* – oltin va durlar sochuvchi deb tarjima qilingan (ANATIL, 1-jild, 394-bet).

Ham ul ganjrezu ham ul ganjposh,

Bo'lub bazlidin dahr aro ganj fosh (Saddi Iskandariy, 31-bet).

Ma'nosi: *U xazinagina yaratib qolmagan, balki ularni o'z saxovatkor qo'li bilan dunyoga sochgan* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 34-bet).

TILSHUNOSLIK

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, *ganjrez* va *ganjposh* leksemalari o'zaro sinonim bo'ib, *ganjrez* so'zining *rez* qismi "rixtan"-*soshmoq*, "quymoq", "sepmoq" fe'lining hozirgi zamon asosidir. Natijada "ganj"-*xazina*, "rez"-*sochuvchi*, "sepuvchi" asosida "xazina sochuvchi" so'zi hosil bo'lgan. FTZTDa "ganjrez" leksemasi "qimmatli", "qadrli" (*ganjbaхи, guxarbor*) kabi ma'nolarni ifodalashi ta'kidlangan (FTZT, 1-jild, 301-bet).

Ganjhez – گنجيز ot turkumiga oid leksema hisoblanadi. Navoiy asarlari lug'atida ham, forscha-tojikcha lug'atlarda ham, etimologik lug'atlarda ham ushbu so'zning izohi berilmagan. E'tiboringizni quyidagi baytga qaratsak:

Birovga yetishgonga qiymat pashez,

Yana birga qiymat kelib ganjhez (Saddi Iskandariy, 30-bet).

Ma'nosi: *Birovning so'zi qora chaqalik qimmatga ega bo'lmagani holda, ba'zi birovlariniki xazina qadar bebaho qimmatga egadir* (Saddi Iskandariy, nasriy bayon, 33-bet).

Dostonning nasriy bayonidan ayon bo'ladiki, *ganjhez* leksemasi "bebaho qimmatga ega bo'lgan" deya tarjima qilingan. Shu o'rinda Y.Rubinchikning "Персидско-русский словарь" nomli lug'atida خيز *xiz* leksemasiga berilgan izohga to'xtalmoqchimiz: خيز *xiz*: 1. "turmoq" fe'lining hozirgi zamon asosi; 2. *sakrash*; 3. *balandlik* (tom balandligi nazarda tutilgan); 4. Qo'shma so'zning ikkinchi komponenti bo'lib, *-ser*, *ko'p* ma'nolarini ifodalaydi. *Xiz* so'ziga so'nggi o'rinda berilgan ta'rifdan kelib chiqib, *ganjhez* leksemasini "serxazina", "ko'p xazina", "bebaho xazina" deb izohlash mumkin. Shunda *ganjhez* leksemasining nasriy bayonda keltirilgan izohi o'rinli ekanligiga guvoh bo'lish mumkin.

XULOSA

Xulosa shuki, Alisher Navoiy o'z asarlari bilan o'zbek adabiyoti xazinasini boyitdi. Buyuk shoir o'zining yuksak mahorati bilan o'zbek adabiy tilining mavqeini, nufuzini, martabasini, maqomini yuksak cho'qqilarga olib chiqdi. Uning barcha asarlari o'z ichiga turkiy leksemalar bilan bir qatorda betakror forsiy, arabiy leksemalarni ham oladi. Shoir ijodini o'rganish, tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish davom etaveradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. AZ Vaxobovna. About Some Persian-Tajik Lexis and Persian Izafetic Constructions in Navoi's Poem "Saddi Iskandari". Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture 3 (11), 2022, P.55-61.
2. AZarifa. "SADDI ISKANDARIY" ASARIDA FORSIY IZOFALI BIRIKMALARNING QO'LLANILISHI. OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI, 2022, B.81.
3. AZ Vaxobovna. [About Some Persian Repeats Used in Navoi's Epos "Saddi Iskandari"](#). Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. 2023, 1. 34-39.
4. AZ Vaxobovna. (2022) SEMANTIC-GRAMMAR STRUCTURE OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS. Modern Journal of Social Sciences and Humanities. 5. 160-165.
5. Абдувалиева Н. Алишер Навоий ғазалларининг лексик-семантик хусусиятлари: Фил.ф.б.ф.д.(PhD), 2022.
6. Акбарова М. Алишер Навоий ғазалларида қофия: Филол.фан.номз...дисс.-Тошкент, 1997.
7. Аширбоев С. Алишер Навоий насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: Филол.фан. д-ри ...дисс.-Тошкент, 1990.
8. Дадабоев Ҳ. Алишер Навоий асарларидаги ижтимоий-сиёсий терминларнинг эски туркий обидалар лексикасига муносабати//Алишер Навоий таваллудининг 550 йиллигига бағишданган илмий – назарий конференция материаллари. –Тошкент, 1991.67-70.
9. Санақулов У. Алишер Навоийнинг "Муҳокамат ул-луғатайн" асари тили: Филол.фан.номз. ...дисс. авторефер.-Тошкент, 1971.-29 б.
10. Умарова Н. Алишер Навоий ғазаллари мақтасида сабаб ва оқибат муносабатининг ифодаланиши:Филол.фан.номз. дисс.-Фарғона, 2005.
11. Қодиров М. Функционирование падежных форм в языке прозы Алишера Наваи: Автореферат диссертации канд.филол.наук.-Ташкент, 1978.
12. Ҳайитметов Ф. Алишер Навоий ғазаллари қофиясида мантиқ урғусининг берилиши: Филол.фан.номз...дисс.-Т., 1998.